

## O‘SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARDA JINSIY TARBIYANING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI

**Saidova Nargiza Ismatulla qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

Amaliy psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinsiy tarbiyaning psixofziologik asoslari hamda yoshlarga jinsiy tarbiya, jinsiy ko‘payish va gender farqlash bo‘yicha ma‘lumotlar berilishi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, o‘smirlik davrida sodir bo‘ladigan fiziologik o‘zgarishlar va jinsiy salomatlik uchun o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan jarayonlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** orientatsiya, jinsiy ong, jinsiy rol sotsiolizatsiyasi, reproduktiv munosabat, jinsiy tarbiya.

Jinsiy tarbiya – bu ota - onalar, bolalar, o‘smirlar hamda yoshlarda gender masalalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga qaratilgan tibbiy - pedagogik tadbirlar tizimi. Bu o‘g‘il va qizlarning, erkaklar hamda ayollarning kiyim uslubi va xatti – harakatlari, ularning munosabatlari hamda huquqlari, qanday o‘yinlarni o‘ynash, qanday gaplashish va nima bilan shug‘ullanish masalalarini o‘z ichiga olgan juda keng maydon. Jinsiy tarbiyaning vazifasi o‘g‘il boladan erkakni tarbiyalash hamda qizni baxtli va muvaffaqiyatli ayolga aylantirishdir. Aniqroq aytganda, bu o‘g‘il bolalar uchun o‘zlarini o‘g‘il, qizlar esa qiz sifatida tan olishlari, to‘g‘ri jinsiy orientatsiyaga ega bo‘lishlari hamda erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zini adekvat tutishlari uchun vazifasidir. So‘nggi o‘n yil ichida jinsiy tarbiya haqidagi qarashlar yanada ziddiyatli tus oldi.

Jinsiy ta‘limning mohiyati o‘zlarining jismoniy hamda psixologik xususiyatlarini yetarli darajada tan oladigan, hayotning barcha sohalarida o‘z va

qarama-qarshi jinsdagi odamlar bilan normal munosabatlar o‘rnatishga qodir, sog‘lom erkaklar va ayollarni kattalar hayotiga tayyorlashdan iborat. Bu hissiy jihatdan yetuk insonni tarbiyalash demakdir. Jinsiy tarbiyaning asosiy vazifalari umumiy ta‘lim jarayoning ajralmas qismi bo‘lib, turli xil muloqot hamda qo‘shma faoliyat turlarida amalga oshiriladi. Insonning xatti – harakati muayyan hayotiy vaziyatga bog‘liq. Bu borada inson xatti – harakatlarini boshqaradigan moslashuvchan psixologik mexanizmlarni o‘rganish va targ‘ib qilish kerak, bu qarama – qarshi jins bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqada keraksiz azob uqubatlarni keltirib chiqarmaydi. V.E. Kogon ishlarida jinsiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari shakllantirilgan:

- Psixologik erkaklikni(ayollik) shakllantirishga yordam beradigan jinsiy tarbiya. Qarama qarshi jinsdagi tengdoshlar bilan normal muloqot qilishni o‘rgatish.
- Jinsiy hamda erotik orientatsiya va jinsiy ongni shakllantirishni optimallashtirishga qaratilgan jinsiy tarbiya.
- Vijdonli hamda mas‘uliyatli nikohga tayyorgarlik
- Ongli hamda mas‘uliyatli ota-onalikka tayyorlash, optimal reproduktiv munosabatlarni rivojlantirish.

Balog‘atga yetish davridagi jinsiy tarbiya birinchi galda, shu davrda o‘smirning organizm hamda shaxsiyatida bo‘ladigan o‘zgarishlarni hisobga olishi lozim. Qizlar o‘n ikki, o‘n to‘rt yoshda, o‘g‘il bolalar esa o‘n uc, o‘n besh yoshda o‘smirlikka qadam qo‘yishadi, bu davrda ularning ichki dunyosi boyib, endokrin bezlari, ayniqsa, jinsiy bezlarining faoliyati kuchayadi hamda asta-sekin jinsiy mayl uyg‘ona boshlaydi. Balog‘atga yetish jarayonida jinsiy ong qaror topa boshlaydi. Onalar sharqona fe‘limizdagi qon-qoniga o‘tib kelayotgan oriyat tuyg‘usi, avlodlarning sha‘nini pok saqlash yo‘lidagi andisha tuyg‘usi qizlar uchun javohirlardan ham yuksakroq ekanligini yo‘l-yo‘lakay uqtirib borishlari lozim. Qizlarni ma‘naviy kamol toptirish uchun ular ruhiyatiga mas‘ullik, burch, uyat hamda vafo fazilatlarini singdirib borishlari lozim. Shuningdek, iffat, vijdoniy poklik, nomus, hayo qizlar tabiatiga xos fazilat ekanligini tushuntirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaning bu jihati

o‘ta nozik hamda mashaqqatli hisoblanadi. Chunki farzandning jajji, ko‘zni quvontiradigan go‘daklik harakatlari ortda qolib, endi u o‘smirlik yoshiga yetadi. Endi farzand har bir holatni ongli fikrlaydigan, ko‘z oldida kechayotgan har bir voqelik va jarayonlarga bolalarcha qiziquvchanlik bilan emas, aksincha, o‘zgacha e‘tibor bilan nazar sola boshlaydi. Shuning uchun ham ota-ona hamda murabbiylardan bunday tarbiya jarayonida juda katta mahorat talab etiladi. Jinsiy tarbiya o‘g‘il va qiz bolalarda jins masalalariga nisbatan to‘g‘ri munosabatni qaror toptirishni ko‘zda tutadi. Yosh avlodning yaxshi hamda sog‘lom o‘sib-unishiga, voyaga yetishiga, nasl qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lishiga, nikoh va oilani mustahkamlashga yordam berish jinsiy-ahloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ota-onalar, tibbiyot xodimlari hamda murabbiylar faoliyatlarini uyg‘unlashtirib, bolalarning yoshi, jinsi, iqtidori hamda boshqa xususiyatlariga mos ravishda jinsiy hamda axloqiy tarbiyani bir-biriga bog‘lab olib borishlari darkor. Maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda shunga alohida e‘tibor berish kerakki, ya‘ni : bunday tarbiya faqat jinsiy hayot asoslari bilan tanishtirish, bolalarga gigiyenik malakalar, erkak hamda ayol tanasi tuzilishi, uning rivojlanish qonunlarini singdirishdan iborat emas, balki axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Jinsiy tarbiyaning pedagogik tizimining mazmuni muhim tarkibiy qism bo‘lib, uni batafsil o‘rganmasdan, bolalarning jinsiy rolini ijtimoiylashtirish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish mumkin emas. Jinsiy tarbiya bo‘yicha barcha pedagogik ishlar va usullarni 4 ta yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1. bolalarni tug‘ish jarayoni bilan tanishtirishga qaratilgan ishlar;
2. odamlarning oiladagi aloqalari hamda ularning ijtimoiy oilaviy rollari haqida g‘oyalarni shakllantirish ustida ishlash.
3. jinsiy-rol sotsializatsiyasining kognitiv komponentining diagnostikasi bo‘yicha ish;
4. gender-rol xulq-atvorini shakllantirish ustida ishlash;

Jinsiy tarbiyaning mazmuni - bu ayol hamda erkakning sog‘lom va yaxlit shaxsiyatini tarbiyalaydigan barcha narsa, ular o‘zlarining fiziologik hamda psixologik xususiyatlarini yetarli darajada anglab, his qila oladilar. Jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy va axloqiy me‘yorlarga muvofiq va shu tufayli hayotning barcha sohalarida bir xil hamda qarama-qarshi jinsdagi odamlar bilan maqbul munosabatlarni o‘rnatish. Ushbu jarayonning ko‘p jihatlari psixoseksual farqlashning umumiy muammolari va jinsi hamda yoshi xususiyatlarini taqdim etish jarayonida ko‘rib chiqiladi.

Oddiy jinsiy hayotga ega bo‘lgan ota-onalar o‘z farzandlariga yaxshi maslahatchi bo‘lishlari mumkin, ammo bizning jamiyatimizda bunday ota-onalar kam uchraydi, shuning uchun jinsiy aloqa haqida bir qancha xavotirli vaziyatlar hamda tushunchalar paydo bo‘ladi. Ularni yashirishning ma‘nosi yo‘q chunki, tabiatan insonga berilgan jarayonlar tizimi hisoblanadi. Biz yaxshi tushunishimiz kerak bo‘lgan bu mavzu murakkab va noaniq hisoblanadi. Tabiiyki, bu borada ko‘plab yondashuvlar, keng ko‘lamli fikrlar mavjud. Jinsiy ta‘lim tufayli pedagogik yuk ko‘paymaydi, chunki uning asosiy qismini boshqa fanlarda yoritish mumkin. Rivojlanishning turli darajalari hamda shaxsning psixologik profilini hisobga olish lozim. O‘qituvchi tomonidan bolalarga kerakli umumiy ma‘lumotlarni uzatish professionallik bilan ajralib turishi kerak. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida jinsiy tarbiya umuman amalga oshirilmaydi, faqat ba‘zi o‘qituvchilar o‘g‘il va qizlarga differensial yondashuvni intuitiv ravishda amalga oshiradilar, o‘g‘il bolalarning qizlarga yordam berish hamda ularga yon berish, ularni xafa qilmaslik, ularni himoya qilish majburiyatlariga e‘tibor berishadi. Shu bilan birga, shuni ta‘kidlash lozimki, o‘qituvchi oldida qiyin vazifa turibdiki, - o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi do‘stlikni rivojlantirish va shu bilan birga jinsiy farqlash jarayoniga to‘sqinlik qilmaslik yo‘llarini tushuntirib borish darkor.

Shunday qilib, jinsiy tarbiya masalalarida oilaning o‘qituvchilar hamda shifokorlar bilan hamkorligi bolaning qarindoshlarini gigiyena va profilaktika, o‘smirlar pedagogikasi va psixologiyasi asoslari bo‘yicha bilimlar bilan rivojlantirib boriladi, bola va ota-ona munosabatlarini optimallashtiradi hamda ularning nufuzini oshiradi. O‘smirlar nafaqat zarur ma‘lumotlarni olishlari, balki sog‘lom turmush

tarziga oid bilim hamda metodlarni amaliyotda, mustaqil faoliyat jarayonida qo‘llay olishlari, o‘z manfaatini his etishlari, ularga rioya qilishdan bahramand bo‘lishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinsiy tarbiya haqidagi suhbatlar bolaga psixologik travma keltirmasligi uchun bunday suhbatlar davomida kuzatilishi kerak bo‘lgan ba’zi qoidalar haqida o‘ylash kerak deb o‘ylayman. Bu qoidalar qanday degan savol tug‘iladi albatta! Buni quyida keltirib o‘tganmiz:

1. Intim masalalarni o‘rganish dozali bo‘lishi kerak.
2. Bola bilan u nimaga tayyor emasligini muhokama qilmaslik lozim.

Jinsiy tarbiya taxminan uch yoshdan boshlanadi. Bu davrda bola jinslar orasidagi farq va qayerdan kelganligi haqidagi savollarga qiziq boshlaydi. Maktab yoshida o‘z jinsiyligi va jinsi o‘ziga xosligi haqidagi savollar birinchi o‘ringa chiqadi. Bolada birinchi (6-8 yoshda), keyin ikkinchi (11-16 yoshda) gormonal o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning tanasi o‘zgara boshlaydi. Bu o‘zgarishlar uni qo‘rqitishi mumkin albatta. Bu yoshda siz bolangiz bilan quyidagi mavzularda gaplashishingiz lozim deb hisoblayman:

1. gormonal o‘zgarishlar hamda fiziologik o‘zgarishlar;
2. rozilik masalalari hamda jinsiy zo‘ravonlik, shu jumladan uning xilma-xilligi;
3. tarmoq xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar;

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, yoshlar o‘zlarida sodir bo‘ladigan gormonal o‘zgarishlar, jinsga bo‘lgan xohish istaklarini hamma vaqt ham jilovlay olishmaydi. Shu sababli ushbu holatlarning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абраменкова В.В. Половая дифференциация и межличностные отношения в детской группе. «Вопросы психологии» № 5 , 1987.
2. Алексеева М.Н. Психологические аспекты половой идентификации детей младшего школьного возраста // Психология телесности: теоретические и практические исследования. Изд.: Пензенский государственный педагогический университет им. В.Г. Белинского, 2009
3. G‘.В. Shoumarov ‘Oila psixologiyasi’. Toshkent, 2005
4. ‘Семейная психология ‘ Шнайдер. Л.Б

